

2026-yil 8-may

## Samimiy muloqot avlodlarni ezgu maqsad atrofida birlashtirdi



**"Uch avlod uchrashuvi"** samimiy muloqot bilan davom etdi. Tadbirda mehnat faxriylari va nuroniylar o'zlarining hayot yo'li, mehnat faoliyati hamda tajribalari haqida ma'lumot berishdi.



Korxonada mutasaddilari bugungi kunda **“Navoiyazot”** AJda amalga oshirilayotgan ishlar xususida soʻz yuritdilar. Yoshlar esa bu kabi uchrashuvlar ularni Vatanga sadoqat, kasbga mehr va yurt taraqqiyotiga daxldorlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlashdi. Shuningdek, ishtirokchilar tomonidan millatimizga xos qadriyatlar, oilaviy anʼanalar va avlodlar davomiyligini taʼminlash borasida fikr almashildi. Mazkur muloqot yoshlarni ajdodlar xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyatda oʻzaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qildi.



**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/samimiy-muloqot-avlodlarni-ezgu-maqsad-atrofida-birlashtirdi>